

TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI DOIRASIDAGI MADANIY- MA'RIFIY HAMKORLIKDA "TURKIY ADABIYOT DURDONALARI"NING O'RNI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15723665>

Tojiyev Dostonjon Beknazar o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy
nomidagi Sharqshunoslik instituti "Xorijiy sharq mamlakatlarining zamonaviy
muammolari" bo'limi III bosqich tayanch doktoranti,

ORCID: 0009-0009-1614-802X

dostonjontojiyev26@gmail.com

Davkarov Ahrorjon Isoqovich

Alfraganus universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti "Xalqaro munosabatlar va
tarix kafedrası" o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda xalqaro maqomdagi tuzilmalar qatorida bo'lgan Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida amalga oshirilayotgan ilmiy, madaniy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy va turizm bo'yicha qator sohalar rivojini ko'rish mumkin. Bu shundan darak beradiki, o'z vaqtida mintaqaviy tuzilma sifatida yaratilgan hamda bugun jahon hamjamiyati e'tiborida bo'lib turgan tashkilotning tarixi ulkan, shu bilan birga, bugungi darajaga yetishi uchun qilingan juda katta mehnatlar besamar ketmagandir. Ushbu maqolada Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida amalga oshirilayotgan madaniy-ma'rifiy ishlar xususida so'z yuritiladi. Maqolada asosiy e'tibor qaratilgan jihat 2022-yilda nashr qilingan 100 jildlik "Turkiy adabiyot durdonalari" to'plamining turkiy dunyo madaniy hamkorligidagi o'rnini ko'rsatib berishdir. Bu maqolada 100 jildlikda chop qilingan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" kitobi haqida ham so'z boradi va umumtarzda tahliliy axborotlar ham berilgan.

Kalit so'zlar: "Turkiy adabiyot durdonalari", TURKSOY, "Oltin to'plam", Boku sammiti, Prezident Shavkat Mirziyoyev, Samarqand sammiti, tahrir hay'ati tarkibi.

ABSTRACT

Nowadays, within the framework of the Organization of Turkic States, which is among the structures with international status, one can see the development of a number of scientific, cultural, political, socio-economic, spiritual-educational and tourism-related areas. This indicates that the history of the organization, which

was created as a regional structure at the time and is now in the spotlight of the world community, is great, and at the same time, the great efforts made to reach its current level have not been in vain. This article discusses the cultural and educational work carried out within the framework of the Organization of Turkic States. The main focus of the article is to show the place of the 100-volume collection "Masterpieces of Turkic Literature" published in 2022 in the cultural cooperation of the Turkic world. This article also discusses the book "Qutadgu Bilig" by Yusuf Khos Hajib, published in 100 volumes, and provides general analytical information.

Keywords. "Masterpieces of Turkic Literature", TURKSOY, "Golden Collection", Baku summit, President Shavkat Mirziyoev, Samarkand summit, Editorial board.

АННОТАЦИЯ

Сегодня в рамках Организации тюркских государств, входящей в число структур, имеющих международный статус, можно увидеть развитие ряда направлений в научной, культурной, политической, социально-экономической, духовно-просветительской, туристической сферах. Это свидетельствует о том, что организация, которая в свое время создавалась как региональная структура и сейчас находится в центре внимания мирового сообщества, имеет давнюю историю, и в то же время огромные усилия, приложенные для достижения ее нынешнего уровня, не прошли даром. В статье рассматривается культурно-просветительская работа, проводимая в рамках Организации тюркоязычных государств. Основное внимание в статье уделяется показу места 100-томного сборника «Шедевры тюркской литературы», изданного в 2022 году, в культурном сотрудничестве тюркского мира. В статье также обсуждается книга Юсуфа Хос Хаджиба «Кутадгу Билиг», изданная в 100 томах, и дается общая аналитическая информация.

Ключевые слова. «Шедевры тюркской литературы», ТЮРКСОЙ, «Золотая коллекция», Бакинский саммит, Президент Шавкат Мирзиёев, Самаркандский саммит, состав редакционной коллегии.

O'zbekistonda turkiy madaniyatning qadimi va bugunini birlashtirish uchun qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. TURKSOY bilan hamkorlikda o'tkazib kelinayotgan yirik anjumanlar, madaniyat va san'at sohasini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, shu bilan bir qatorda, turkiy xalqlar o'rtasidagi qardoshlik rishtalarini mustahkamlashga har taraflama xizmat qilinmoqda. Ma'naviy-ma'rifiy va madaniy hamkorlikni yuksaltirish uchun tashkilot doirasida qilinayotgan ishlar

behisob. 100 jilddan iborat “Oltin to‘plam” ham bu boradagi qilingan ishlarning o‘ziga xos ko‘rinishi sanaladi.

Bugun va kelajak istiqbolini belgilashda, shubhasiz, turkiy xalqlarning ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini, boy tarixi va madaniyati, ularning ko‘p asrlik do‘stligi, yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro anglashuv an’analari tayanish muhimdir. Madaniy-gumanitar hamkorlik davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar muhitini shakllantiradi, insonlarni birlashtiradi [Мирзиёев, 2020, с. 267]. Bugun globallashtirilgan davr buning yorqin isboti bo‘lib ulgurdi.

2019-yilning 15-oktabr kuni Bokuda bo‘lib Turkiy davlatlarning navbatdagi sammitida O‘zbekiston tarixiga oltin harflar bilan bitildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev sammitda ishtirokini tashkilotning rasmiy a‘zosi sifatida boshladi. Ayni shu sammitda tashkilotga a‘zo mamlakatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat “Turkiy adabiyot durdonalari” deya nomlangan 100 jilddan iborat kitoblarni to‘plamini har bir davlatning ona tilida yaratish g‘oyasi ham ilgari surildi [“Turkiy adabiyot durdonalari”, 1-jild, 2022, b. 3]. Ushbu muhim tashabbus va taklif jiddiy tayyorgarlikdan so‘ng amalga oshirildi. E’tiborli jihati shundan iboratki, O‘zbekiston Prezidenti kitob – tinchlik, ezgulik va sulh elchisi ekanini ta’kidlagan holda jahon siyosati madaniyatiga o‘ziga xos yangi bir an’anani olib kirdi. Bu turli davlat rahbarlariga kitob hadya etish tashabbusidir [“Turkiy adabiyot durdonalari”, 6-jild, 2022, b. 3]. Ushbu tashabbusning yorqin namunalaridan biri Turkiy davlatlar tashkilotining Samarqandda o‘tgan tarixiy sammitida o‘zbek tilida nashr etilgan 100 jilddan iborat “Turkiy adabiyot durdonalari” oltin xazinasining tashkilotga a‘zo davlat rahbarlariga topshirilgani bo‘ldi.

Ko‘lami keng, zalvori mashaqqatli yirik badiiy silsilani tayyorlash ishida anchayin katta tahrir hay’ati va ishchi guruhlar mehnat qilishdi.

Yangi O‘zbekistonda beqiyos ma’naviy bisot, avlodlar uchun ulkan tuhfa yaratildi. 100 jildlik to‘plamni nashrga hozirlash o‘z-o‘zidan amalga oshmagani aniq. Tahrir hay’ati tarkibida Xayriddin Sulton (hay’at raisi), Ibrohim G‘ofurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev, Behzod Yo‘ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali, Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton kabi o‘zbek adabiyotining zabardast vakillari bor edi. Bundan tashqari ishchi guruhda Ikrom Bo‘riboyev, G‘ofur Eshmurodov, G‘ayrat Bozorov, G‘ayrat Majid, Rustam Musurmon, Tohir Qahhor, Risolat Haydarova, Boboxon Muhammad Sharif va Umid Hayitov kabi o‘z sohasining yetuk mutaxassislari faoliyat olib borishdi. Shu qatorda 200 dan ortiq tarjimon, 100 dan ziyod adabiyotshunos olimlar, yozuvchi va muharrirlar ham loyihaga jalb etilgani holda 100 jildlik majmua AOKAning “O‘zbekiston” nashriyotida nashrga tayyorlandi va to‘liq holda chop etildi.

“Turkiy adabiyot durdonalari” nomi ostidagi 100 jildlik kitoblar turkumi O‘zbekiston (Qoraqalpog‘iston ham), Ozarbayjon, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston Turkmaniston va Vengriyaning (kuzatuvchi davlatlar bo‘lsa ham) jami 450 dan ziyod, umumiy tarzda aytganda XI – XXI asrga mansub 629 nafar (Mannonov-Hamidov, 2022, p. 272) mumtoz va zamonaviy shoir, adib hamda mutafakkirlarning asarlarini o‘zida jamlaydi. To‘plamda turkiy dunyoning eng peshqadam alloma va adiblari, mumtoz hamda zamonaviy turkiy tilli adabiyotlarning 1010 nafar muallifi tomonidan olam yuzini ko‘rgan badiiy so‘z gavharlari jamlangan. Xususan, to‘plamda jami 117 nafar mashhur shoir va adibga alohida jild ajratilgan. 52 nafar ijodkorning asarlari o‘ziga zamondosh, uslubi va yo‘nalishi jihatidan yaqin va hamohang bo‘lgan boshqa adib va shoir bilan bitta jildga kiritilgan [“Turkiy adabiyot durdonalari”, 1-jild, 2022, b. 4]. Umumiy aytganda “Oltin to‘plam”ning katta qismi, ya’ni 33 jildi o‘zbek adabiyotini tashkil qilsa (1 - 33-jild), qolganlari: 5 jildi qoraqalpoq adabiyoti (34 - 38-jild), 17 jildi turk adabiyoti (39 - 55-jild), 16 jildi ozarbayjon adabiyoti (56 - 71-jild), 10 jildi qozoq adabiyoti (72 - 81-jild), har biri 9 jilddan qirg‘iz (82 - 90-jild) va turkman adabiyoti (91 - 99-jild), va 1 jildi venger adabiyotining (100-jild) mashhur namunalari iborat.

Ushbu 100 jildlik adabiy durdona turkiylardan birinchi bo‘lib yozma manba yaratgan buyuk mutafakkir Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘oti-t-turk” [“Turkiy adabiyot durdonalari”, 1 - 2-jildlar, 2022] asaridan boshlanib taniqli mojar adibi Aron Yanoshning o‘zbek sharqshunos olimi Is’hoq Ibrohim tomonidan XIX asrda tarjima qilingan “Ajoyib suyg‘unning hikoyati” [“Turkiy adabiyot durdonalari”, 100-jild, 2022, b. 3] nomli mashhur dostoni bilan yakunlangan.

Tarixda nomlari qolgan buyuklar ko‘p bo‘lib, ular o‘zlarining keng ijodiy faoliyati, ko‘plab ilmiy, tarixiy, adabiy asarlari bilan zamondoshlarining hurmat va e’tiborini qozonishgan, keyingi avlodlarning ham e’tiroflariga sazovor bo‘lishgan. Ammo shunday ijodkorlar ham borki, ulardan faqat birgina asar yetib kelgan, xolos. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” nomli kitoblari mana shu silsilaga kiradi [Turkiy adabiyot durdonalari, 3-jild, 2022, b. 4].

Ularning uchalasi ham Sharq Renessansi – Uyg‘onish davrida yashagan, aniqrog‘i, o‘sha ilk Renessansning ravnaqiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shishgan. Adam Mets “Musulmon Renessansi” [Qayumova F., Rahimjonov F., 2023, b. 53], akademik N.Konrad “Sharq uyg‘onishi” [Muhamedov A., 2024, b. 449] deb nomlagan ushbu davr ko‘plab mutafakkirlarni, buyuk allomalarni maydonga keltirgan. Muhammad Xorazmiy, Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon

Beruniy, Ahmad Fargʻoniy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sinolar oʻsha davrlardayoq jahon eʼtirofiga sazovor boʻlishgan [Turkiy adabiyot durdonalari, 3-jild, 2022, b. 4]. Yuqoridagi uch mutafakkir ham shu silsilaning munosib halqalaridir.

Uygʻonish davrining asosiy xususiyatlaridan biri madaniy va tafakkurdagi yuksalishning ochiq namoyon boʻlishi bilan belgilanadi. Uning asl mohiyatini jaholat va mutaassiblikka oʻt ochish, insonni ulugʻlash, uning isteʼdod va qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, umuminsoniy va milliy-maʼnaviy fazilatlar uygʻunligini targʻib va tashviq etishni tashkil etadi. Ayni mana shu jihatlar Yusuf Xos Hojibni ilk Uygʻonish davrining munosib vakillaridan biriga aylantirgan.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” asari XI asrda yaratilgan. U turkiy tilda yozilgan ilk yirik yozma doston sifatida alohida ahamiyatga molik. Asarda oʻsha davrdagi ajdodlarning tasavvur va dunyoqarashlari, falsafasi, axloqi, maʼnaviyati va madaniyati badiiy soʻz vositasida oʻziga xos tarzda tasvirlab berilgan. Ayni paytda bu asar turkiy davlatchilikning oʻz davridagi badiiy nizomnomasi sifatida ham eʼtirof etilgan.

Qoraxoniylar davrida yaratilgan betakror soʻz durdonalaridan boʻlgan Yusuf Xos Hojibning falsafiy-didaktik asari “Qutadgʻu bilig” va Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq” asarlari “Turkiy adabiyot durdonalari” majmuasining 3-jildiga kiritilgan. “Turkiy Shohnoma”ning tabdilini filologiya fanlari doktori, professor Boqijon Toʻxliyev, “Haqiqatlar tuhfasini”ning sheʼriy tabdilini esa Sharq mumtoz adabiyotining beqiyos bilimdoni, filologiya fanlari nomzodi Ergash Ochilov tayyorlaganlar.

“Qutadgʻu bilig” – falsafiy-didaktik asar. Har qanday yaxshi badiiy asar ayni paytning oʻzida bir necha vazifalarga boʻysundirilgan boʻladi. Yusuf Xos Hojib asari ham bundan chetda emas. Unda bir tomondan mamlakatni siyosiy jihatdan jipslashtirish, qoraxoniylar davlatining iqtisodiy asoslarini mustahkamlash vazifasi olgʻa surilgan boʻlsa boʻlak tomondan mamlakat aholisini oʻzaro ittifoqqa undash, eng yaxshi insoniy xislatlarni targʻib qilish, shoir sifatida qalbini hayajonga solayotgan masalalarni oʻrtaga qoʻyish ham turadi. Bularning barchasini yuksak badiiylilik asosida ado etish oʻziga xos vazifa boʻlganiga shubha yoʻq [Turkiy adabiyot durdonalari, 3-jild, 2022, b. 5].

Ushbu 100 jildlik turkiy adabiyot durdonalarining ayrimlari allaqachon oʻzbek tilida mavjud va bugunga qadar nashriyotlar tomonidan bir necha marotaba nashr ham etilgan. Nashrlarning esa oʻzbek kirilchasi va oʻzbek lotinchasida turfa nashriyotlardan chiqqan nusxalari bor.

Oʻzbekistonda oʻnlab nashriyotlar mavjud boʻlsada, biroq yuqoridagi “Oltin jidllar”ga tegishli boʻlgan 100 jildlikdagi asarlarning bir qanchasi “Yangi asr

avlodi”, “O‘zbekiston”, “Akademnashr”, “Hilol nashr”, “Sharq” kabi yirik nashriyot-matbaa markazlarida chop etilganini ko‘rish mumkin. Bundan tashqari O‘zbekiston bozoriga yaqin 5-10 yil ichida kirib kelgan kichik nashriyotlar tomonidan ham yuqoridagi adabiyotlar nashr etilgan hamda ularni bugun turli xil sotuv joylaridan yoki kutubxonalardan topishning iloji bor.

Ushbu “Oltin to‘plam”ning bosh tashabbuskori bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning: “O‘ylaymanki, Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashiga a‘zo davlatlarda “Turkiy adabiyot xazinasini” ruknida nashr etiladigan eng sara adabiyotlarimiz namunalaridan iborat 100 jildlik kitoblar turkumi madaniy hamkorligimizni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi” [Мирзиёев Ш., 4 жилд, 2020, б. 316-317], – deya bergan ta’rifi bu durdona kitoblarning naqadar o‘rinli ekanligiga aniq ishoradir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан - миллий юксалиш сари. Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – Б. 267.
2. Turkiy adabiyot durdonalari. Mahmud Koshg‘ariy. 1-jild. / to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Hamidulla Boltaboyev. Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B. 3.
3. Turkiy adabiyot durdonalari. Alisher Navoiy. 6-jild. / to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Mirzo Kenjabek. Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B. 3.
4. Mannonov A., Hamidov X. Bebaho xazina (“Turkiy adabiyot durdonalari” tilimizda). Translation forum – 2022. Oriental research journal. Volume 2, Special issue 28, December 2022. P. 272. <https://cyberleninka.ru/article/n/bebaho-xazina-turkiy-adabiyot-durdonalari-tilimizda/viewer>
5. Turkiy adabiyot durdonalari. Mahmud Koshg‘ariy. 1-jild. / to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Hamidulla Boltaboyev. Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B. 4.
6. Turkiy adabiyot durdonalari. Venger adabiyoti namunalari. 100-jild. / to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi G‘ayrat Majid. Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B. 3.
7. Turkiy adabiyot durdonalari. Yusuf Xos Hojib. Ahmad Yugnakiy. 3-jild. / to‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar Boqijon To‘xliyev, Ergash Ochilov. Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B. 3-5.
8. Qayumova F., Rahimjonov F. Sharq renessansi Adam Mets talqinida. Journal of advanced research and stability. Volume 03, Issue 04, 2023. – P. 53-56.
9. Muhamedov A. Sharq renessansining vujudga kelishidagi ijtimoiy omillar. "Экономика и социум", №2 (117), 1, 2024. – С. 449-453.

10. Мирзиёев Ш.М. Дўст боғининг булбули. // Турк мумтоз шоири Юнус Эмронинг “Ўлмас кўнгул” китобига ёзилган сўзбоши. // Миллий тикланишдан - миллий юксалиш сари. 4 жилд. Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – Б. 316-317.